

SHAXSNING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSLARI VA ONG TARAQQIYOTI

Kamolova Sabrina

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Inson shaxsiyatining va rivojlanishida psixologik va fiziologik omillar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni o'rganadi. Ushbu sohada ongning rivojlanishi, nerv tizimi va miya faoliyatining shaxsiy xususiyatlari, hissiy holatlar va intellektual qobiliyatlarni shakllantirishdagi roli muhim ahamiyatga ega. Psixofizik asoslari ya'ni insonning biologik strukturasi va uning ruhiy holatlar o'rtasidagi bog'lanish, shaxsning ong taraqqiyoti jaroyonida muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar: *structural, nerv, miya, ong, intellektual, psixologik fiziologik.*

Абстрактный: *исследует сложное взаимодействие психологических и физиологических факторов в развитии личности человека. В этой области важное значение имеет развитие сознания, роль нервной системы и мозговой деятельности в формировании особенностей личности, эмоциональных состояний и интеллектуальных способностей. Психофизические основы, т. е. связь между биологической структурой человека и его психическими состояниями, играют важную роль в процессе развития сознания личности.*

Ключевые слова: *структурный, нерв, мозг, сознание, интеллектуальное, психологическое, физиологическое.*

Abstract: *Studies the complex interaction between psychological and physiological factors in the development and functioning of the human personality. In this field, the development of consciousness, the role of the nervous system and brain activity in shaping individual characteristics, emotional states and intellectual abilities is of great importance. Psychophysical foundations, that is, the connection between the biological structure of a person and his mental states, play an important role in the process of the development of the individual's consciousness.*

Keywords: *structural, nervous, brain, consciousness, intellectual,*

psychological physiological.

Kirish. Shaxs tushunchasi insonning o'ziga xos psixik va fiziologik xususiyatlar jamiyatdagi o'rnini faoliyati bilan bog'liq bo'lib, uning individual jihatlarining yig'indisi sifatida qaraladi. Shaxsning rivojlanishi va shakllanishida psixofiziologik asoslar va ong taraqqiyoti chambarchas bog'liqdir. Lev Vygotskiy o'zining "Ong rivojlanishi" asarida inson ongining ijtimoiy va madaniy asoslarini tahlil qilgan Vygotskiy ongning rivojlanishida muloqot va jamiyat bilan aloqaning o'rnini muhimligini ta'kidlagan. Unga ko'ra ongning taraqqiyoti insonning tashqi muhim jamiyat bilan o'zaro aloqalarini shuningdek, uni atrof-muhitdan o'zlashtirilishi va o'zining ichki tasavvurlari orqali shakllanadi.

Asosiy qism. Vygotskiyning aytishicha, ongning rivojlanishini faqat biologik omillarga asoslamaydi, balki ijtimoiy aloqalar va madaniyatning muhim rolini ta'kidlaydi. Unga ko'ra insonning aqliy rivojlanishi va boshqalardan o'rganishi muloqot o'zaro aloqalar orqali amalga oshadi. Shuning uchun iqtibos olish boshqalar bilan o'zaro ta'sirni bu kognitiv rivojlanishning asosiy omillar hisoblanadi. U ayniqsa o'rganish jaroyonida muhim rol o'ynaydi sonda tamoyilni-zonalarning konsepsiyasini ishlab chiqadi. Ong-insonning o'zini-o'zi anglash, borliqni tushinish va unda o'z o'rnini aniqlash jaroyonidir. Ongning rivojlanishi insonning bilib va tajriba orttirishi bog'liq bo'lib bola davridan to umrining, oxirigacha davom etadi. Bolalikda ongning shakllanishi asoslari sezgilar idrok va nutqning rivojlanishi orqali amalga oshadi. Yosh o'tishi bilan esa, tafakkur, xotira, ijodiy qobiliyatlar taraqqiyoti etadi. Ong taraqqiyotida ta'lim tarbiya muhim omil hisoblanadi. Insonning o'qib o'rganishi, yangi bilimlarni o'zlashtirishi va dunyoqarashini kengaytirishi uning ongi tafakkurining yuqori darajada rivojlanishiga yordam beradi. Ayniqsa, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish ong taraqqiyotining asosiy bosqichlaridan biridir. INSONNING psixofiziologik xususiyatlari asosan markaziy asar tizimi va miya faoliyati bilan aks ettiradi.

Miya bu insonning fikrlashi, idrok ettirishi xotirasi, va his-tuyg'ularini boshqaruvchi asosiy organ hisoblanadi. Insonning infividualligi asosan

temperament, xarakter va qobiliyatlar orqali namoyon bòladi. Temperament shaxsning ruhiy jaroyonlarining tezligi va dinamikasini belgilaydi. Xarakter esa insonning ijtimoiy va ma'naviy jihatdan shakllangan xalq atvorni belgilaydi. Bunda, tashqi muhitning ta'siri ham katta ahamiyatga ega. Oilaviy tarbiya maktab va jamiyat shaxsning shakllanishida muhim rol òynaydi. Chunki, aynan tashqi omillar psixofiziologik imkoniyatlarni namoyon qilish va rivojlantirishda asosiy rol òynaydi. Ong insonning òzini òzi anglashi, borliqni tushinishi òz òrnini aniqlash jaroyonidir. Shaxsning psixofiziologik asoslari va ong taraqqiyoti insonning asab tizimi miya faolyati psixik jaroyonlar bilan chambarchas bog'liq. Odam ongining shakllanishi va rivojlanishi asosan biologik va psixologik jaroyonlarining birlashishi natijasida yuzaga keladi. Miya faoliyatining rivojlanishi va tajriba bilan bog'liq kognitiv jaroyonlar ongni shakllantiradi va uning rivojlanishiga asos bòladi. Òrganish jaroyonlari va miya rivojlanishi ongning shakllanishiga olib keladi. Shaxs ongining fikrlash qaror qabul qilishi va emotional reaksiyalarini boshqarish jaroyonlari miya va asab tizimi faoliyatining bevosita natijasidir. Shaxsning psixofiziologik asoslari va ong òzaro bog'liq jaroyonlaridir. Insonning fiziologik sog'ligi uning psixik holatiga ta'sir qiladi.

Shaxsning psixofiziologik asoslari va ong taraqqiyoti haqida turli olimlar o'z nazariyalarini ilgari surgan¹. Sigmund Freyd (1856–1939):

Freydning psixoanaliz nazariyasiga ko'ra, shaxsning ongli va ongsiz tomonlari o'zaro ta'sir qiladi. U shaxsiyatni uch tarkibiy qismga ajratadi:

Id – tug'ma instinktlar, ehtiyojlar.

Ego – haqiqatni anglaydigan va muvozanat saqlaydigan qism.

Superego – axloqiy me'yorlar va ijtimoiy qadriyatlar.

Freyd fikricha, ong taraqqiyoti bolalikdagi psixoseksual rivojlanish bosqichlariga bog'liq.

2. Jean Piaget (1896–1980):

Piaget ong rivojlanishini kognitiv rivojlanish bosqichlari orqali izohlaydi. Bu bosqichlar quyidagilar:

Sensor-motor bosqichi (0–2 yosh): bola dunyoni sezgi va harakatlar orqali anglaydi.

Old operatsion bosqich (2–7 yosh): til va tasavvur orqali fikrlash rivojlanadi.

Beton operatsion bosqich (7–11 yosh): mantiqiy fikrlash shakllanadi.

Formal operatsion bosqich (11 yoshdan boshlab): abstrakt fikrlash paydo bo‘ladi.

3. Lev Vygotskiy (1896–1934):

Vygotskiy ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqdi. Unga ko‘ra, shaxsning ong rivojlanishi asosan ijtimoiy o‘zaro ta’sir va madaniy vositalar yordamida yuzaga keladi.

“Yaqin rivojlanish zonasi” (Zone of Proximal Development) degan tushunchani kiritgan, bu shaxsning hozirgi qobiliyatlari bilan ustoz yordamida erishishi mumkin bo‘lgan. Psixik holatiga esa ongning rivojlanishini belgilaydi. Stress, depressiya yoki boshqa ruhiy holatlar insonning ongi va intellektual qobiliyatlarini cheklashi mumkin. Aksincha, sog‘lom turmush tarbiya ijodiy fikrlash va maqsadga intilish esa shaxsning intellektual va ruhiy rivojlanishiga yordam beradi. Shaxsning psixofiziologik asoslari va ong taraqqiyoti bir butun jaroyon sifatida namoyon bo‘ladi. Inson o‘z salohiyatini Maksim darajada amalga oshirish uchun uning fiziologik va psixologik jihatdan sog‘lom bo‘lishi zarur. Shu bilan birga ta’lim tarbiya ijtimoiy muhit va shaxsning o‘zini-o‘zi anglashga bo‘lgan intilishi uning shaxs sifatida rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun har bir inson o‘z ruhiy va jismoniy salomatligiga e’ribor berib, doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi zarur. Shaxsning psixofiziologik asoslari va ong taraqqiyoti mavzusi insonni o‘rganish jarayonida markaziy ahamiyatga ega.

Shaxsning rivojlanishi organizmning fiziologik xususiyatlariga bog‘liq. Miya va asab tizimi faoliyati, reflekslar, hissiy sezgirlik va genetik meros shaxs xulq-atvori va ongining poydevorini tashkil etadi. Ushbu jarayonlarda miyadagi neyronlarning integratsiyasi asosiy rol o‘ynaydi.

Inson ongi madaniy, ijtimoiy va shaxsiy tajriba orqali rivojlanadi. Bolalik davridan boshlab, kognitiv jarayonlar (idrok, xotira, fikrlash) va kommunikativ qobiliyatlar takomillashib boradi. Ayniqsa, til rivoji ong shakllanishining muhim asosi sifatida ahamiyatga ega.

Biologik omillar shaxs taraqqiyotining negizi bo‘lsa-da, ijtimoiy muhit va

tarbiya ushbu negizning yo'nalishini belgilaydi. Ijtimoiy ta'sir (oilalar, maktab, do'stlar) shaxsning ijtimoiy qoidalar va me'yorlarga moslashishiga yordam beradi.

Erik Erikson va Jan Piage nazariyalari shaxsiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichlar insonning muhim kognitiv va emotsional muammolarni hal qilish orqali taraqqiy etishini tushuntiradi.

Umuman olganda, shaxsning psixofiziologik asoslari va ong taraqqiyoti inson tabiati va ijtimoiy faoliyatning chuqur o'zaro bog'liqligini ochib beradi.

Xulosa

Shaxsning psixofiziologik asoslari va ongning taraqqiyoti o'zaro uzviy bog'liq jarayon bo'lib, ular shaxsiyatni shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Inson organizmidagi fiziologik jarayonlar va ruhiy faoliyat bir butun bo'lib, atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlar ta'sirida rivojlanadi. Shu sababli, shaxsni to'liq anglash va rivojlantirish uchun uning biologik va psixologik tomonlarini chuqur o'rganish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V .A.Krtetskaya Psixofiziologiya 1975
2. D.A Uznadze Ong va shaxs 1970
3. Sigmund Freyd Freud.S 1923
4. ID.W.W Norton company
5. Han Piaget. PiagetJ.